

GONGKONGNING XITOYGA QAYTARILISHI: 1 MAMLAKAT-2 TIZIM

Xikmatov Xikmat Shokir o'g'li

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti
Xalqaro munosabatlar fakulteti 3-bosqich talabasi*

Abstrak: Ushbu maqolada bugungi kunda Xitoyning eng rivojlangan hamda eng nozik hududlaridan biri bo'lgan Gongkongning vujudga kelish tarixi hamda Xitoy uni qanday qilib o'zining hududiy qismiga aylantirganligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xitoy, AQSH, Asosiy Qonun, Sino-Britaniya qo'shma deklaratsiyasi, Pekin, Den Syaopin, Osiyo Yo'lbarzlari, 1979-yilgi islohot.

KIRISH

Bugungi kunda Xitoy Osiyo davlatlari orasida eng ko'p darajada yirik gegemon sifatida dunyoda o'z o'yin qoidalarini taklif etayotgan davlat sifatida shakllanmoqda. U tomonidan amalga oshirilayotgan tashqi siyosat zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi qoidalarni qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Xitoy borgan sari o'zining orzusidagi jamiyatni qurishga intilsa-da, uning ichki hududiy bo'linishlari bir qadar siyosiy beqarorlikni yuzaga keltirmoqda. Gongkongning Xitoy tarkibiga kiritilishi muammolarning ta'sir doirasini kamaytirgan bo'lishi mumkin, ammo to'liq yechim bermadi. Dastlab shu va shunga doir masalalar haqida ma'lumot beriladi.

Gongkong bugungi kunda Xitoy tarkiniga kiruvchi avtonomiya hisoblansa-da, qisman o'zining hayot tizimini saqlab qola oldi. 1997-yil 1-iyulida Gongkongda konstitutsiya vazifasini bajaruvchi

Asosiy qonunni kuchga kirishi bilan Xitoy Xalq Respublikasi hududiga kiruvchi Gongkong maxsus ma'muriy hududi tashkil topdi. Qabul qilingan Asosiy qonun Gongkongning nafaqat qonun tizimining davomiyligini 170 yildan ziyod vaqtga kafolatlab, balki qonun oldida hammaning tengligi, namoyishlar o'tkazish, din va vijdon erkinligi kabi huquqlarni ham o'zida mujassamlashtirdi.

Ammo ichki siyosatda bilingualizm o'z ifodasini topdi. Davlatning rasmiy tillari sifatida ingliz hamda xitoy tili tanlandi, qolaversa, qonunchilik sohasida ham ushbu tillardan foydalaniladigan bo'lidi. Eng muhimlaridan biri, ¹Gongkong 50 yil mobaynida, ya'ni 2047-yilgacha iqtisodiy, qonunchilik hamda ma'muriy boshqaruvida mustaqilligini saqlab qolish huquqiga ega bo'ldi. Gongkong tashqi siyosatda ham bir qator erkin harakat qilish huquqiga ega.

Gongkong Jahon Savdo Tashkiloti, Osiyo-Tinch iqtisodiy kooperatsiyasi va shunga o'xshash tashkilotlarda 'Hongkong, China' nomidan foydalanadi va xuddi shu nom ostida 350 dan ortiq davlatlar bilan ko'p tomonlama shartnoma imzolagan bo'lsa, shundan 260 tasi ikki tomonlama shartnoma turiga kiradi.

¹<https://www.brandhk.gov.hk/docs/default-source/factsheets-library/hong-kong-themes/2024-01-03/one-country-two-systems-en.pdf>

Gongkongning vujudga kelish tarixi.

Gongkongning tarixiga yuzlanadigan bo`lsa, u Nanjing shartnomasi, ya`ni Xitoy va Buyuk Britaniya o`rtasida 'Afyun urushi' natijasida 1842-yilda imzolangan shartnomaga ko`ra Xitoy tomonidan Britaniyaga in`om etiladi. Birinchi(1860) hamda ikkinchi(1898) Pekin konvensiyalaridan kelib chiqqan holda, Britaniya yanada ko`proq hududlarga ega bo`lgan joyni 99-yilga ijaraga olish huquqi bilan 1898-yilda konvensiyaning yakunlovchi qismini imzoladi. Bu davr mobaynida Gongkong Britaniya hukmi ostida Xitoydagi eg yirik kapitalistik hudud sifatida shakllandi. Keyinchalik bu hudud Britaniya ma`murlarining yashash joyi bo`lgan elita hamda mahalliy aholi, ishchilar yashaydigan hududga aylanib qoldi. Ammo 2-jahon urushi yakunlariga ko`ra, Xitoy 1898-yilda imzolangan shartnomaga qanoatlanmaydigan bo`ldi. Xitoyda kommunistik tizim o`rnatilgach, Gongkong uchun ham bir qadar sezilarli ta`sirlar o`tkazib ko`rdi. Jumladan, Xitoy siyosatining keyingi bosqichlarida avval imzolangan shartnomalar noteng darajada ekanligi, Gongkongning suverenitetini qayta tiklash asosiy milliy manfaatlarini sifatida shakllandi. Urinishlarga qaramay, 1949-yildan keyin ham Gongkong Britaniya tarkibida qoldi. 1967-ilda so`l isyonchilar Xitoy madaniy inqilobidan ruhlangan holda Gongkongni qayta birlashtirishga urinib ko`rishdi, lekin Xitoy Britaniya bilan ziddiyatga bormaslik uchun ularni tiyib turishga majbur bo`ldi. Xitoy Gongkongni qaytarish bo`yicha uzoq muddatli qayta tiklash yo`lidan borishga intildi, ammo aslida 'hand off' siyosati, ya`ni, u yerda Britaniya tomonidan iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirishiga yo`l ochib berdi.

'1 mamlakat 2 tizim' siyosatining tatbiq qilinishida amalga oshirilgan strategiyalar: pessimistik hamda optimistik qarashlar. Tarixda misli ko`rilmagan siyosiy tizimni Xitoy Gongkongda joriy qilishidan asosiy maqsad Xitoyning hududiy suverenitetiga doir keng milliy manfaatlarini himoya qilish hamda gullab-yashnab turgan Gongkongni saqlab qolish edi. Ushbu tizimni boshqarish uchun ham 3 qismga ega strategiya qabul qilindi. Avvalambor, ikki davlatning tizimini ajratib turish uchun Asosiy qonun ya`ni kichik konstitutsiya qabul qilindi, unga ko`ra, Maxsus ma`muriy hududda bo`ladigan ichki siyosiy muammolarni yuqori darajadagi avtonomiya bilan birgalikda hal qilish imkoniga ega bo`ldi, Pekin esa MMH ustidan mudofaa va tashqi siyosat ustidan ta`sirini saqlab qoldi. Pekinning bu yondashuvidan, shubhasiz, shuni ko`rish mumkinki, Gongkongda bo`ladigan har qanday hodisa Pekinning nazorati ostida bo`lishi kerak edi. Chunki, bu yerdan chet elliklar, asosan, Buyuk Britaniya to`liq chiqib ketmagan edi. Kelgusida ro`y berishi mumkin bo`lgan ko`ngilsizliklarni oldini olish maqsadida Pekin har qanday namoyishlarni yoki kichik tartibsizliklarni jamoat osoyishtaligini buzishga urinish hisoblab, qattiq choralar bilan bostirdi. Ikkinchidan, ikki mamlakatning siyosiy jihatdan birlashtirishga minimal darajada harakat qilindi. Har qanday ortiqcha strategiya jamoat tartibotini buzilishiga, tashqi aralashuvni oshishiga sabab bo`lishi mumkin edi. Xitoyning bu strategiyasi, asosan, yangi bayroq, emblema hamda asosiy mansabdorlarni tayinlashda yaqqol bilindi. Uchinchidana esa, avtonomiyada yuz bergan muammolarni hal qilishda Xitoy iloji boricha tolerantlik bilan yondashishga harakat qilindi.

Xo'sh, nega unda Pekindagi mansabdorlar 1989-yildan so'ng Asosiy qonunga o'zgartirish kiritdi? Umuman olganda, 4-iyundagi ommaviy qirg'in Pekinda katta qo'rquv uyg'otdiki, shu zahotiy oq Asosiy qonunga o'zgartirish kiritish ustida bosh qotirishdi hamda Gongkongdan kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarga qarshi turish uchun 23-qonun loyihasini ishlab chiqishdi. Pessimistlar bunday xatti-harakatni communist rejimning avtoritar xarakterda ekanligi, u faqatgina to'liq nazoratni talab qilishi va har qanday G'arb bilan bog'liq inson huquqlari yoki hukumat mexanizmlariga qarshi chiqadigan tizim deb hisoblaydi. Ularning fikricha, hokimiyat va Gongkong o'rtasida farq shunchalik kattaki, oxir-oqibat Pekin bu o'yinda mag'lub bo'lishiga qattiq ishonishgan edi. Chunki g'arbcha kapitalistik modelda rivojlangan Gongkongning kommunistik Pekin bilan bog'lab turadigan hech qanday o'xshash jihati yo'q edi. Xuddi shu faktlarni hisobga olgan holda, kommunistik partiya G'arb burjuaziyasidan kelishi mumkin bo'lgan xavflarni oldini olish maqsadida avtonomiyadagi asosiy vositalarni, jumladan, Bosh Ijrochi direktorni tayinlash vakolatini qo'lga olgan. Bu esa, Xitoyga Gongkong ustidan hukm chiqarish imkoniyatini taqdim qiladi. Shu bilan birga, optimistlar iqtisodiy ratsionalizm 1979-yildan beri ochiq eshiklar siyosati hamda siyosiy va iqtisodiy hayotni barqarorlashtirganligini bildirgan. Gullab yashnagan Gongkong Xitoy uchun xavf emas, balki tashqi dunyo bilan bog'laydigan eshik ekanligini haqida tahmin qilishgan. 1950-60-yillarda Gongkong Xitoyni dunyoning boshqa hududlari bilan boglab turuvchi hamda dunyoning qolgan nuqtalari bilan tutashtiruvchi oyna vazifasini o'tagan. Agarda Gongkong bilan aloqalarda qandaydir xatolik yo'l qo'yiladigan bo'lsa, bu bevosita Tayvanni birlashtirishga ham o'z ta'sirini o'tkazishini optimistlar qat'iyon bildirishgan.

Reform davri (1978-1997). Den Syaopin reformatsiya davrini boshlab bergandan so'ng, Pekin Gongkongning kelajagi haqida chuqur qayta ko'rib chiqishni boshladi. U Gongkongni Xitoy tarkibida alohida qonuniy tizim hamda kapitalistik iqtisodiyot hayotini tartibga soldi. Den Syaopin tomonidan amalga oshirilgan Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiyalashga qaratilgan 'Reform va ochilish' (Gaige Kaifang) siyosati markazlashtirilgan rejali iqtisodiyotdan ijtimoiy bozor iqtisodiyotini amalga oshirish ko'zlangan edi. Garchi bu reformalar Xitoyda o'tkazilgan bo'lsa-da, Gongkongga ham ta'sir etmasdan qo'ymadi. 1980-yillarda Xitoyning moliyaviy va savdo darvozasi sifatida tanilishi, bu hududga chet el investitsiyalarini oqib kelishiga zamin yaratdi. Natijada, investorlarning oqimi sababli maxsus iqtisodiy zona, keyinchalik Shenzhen nomi bilan ataladigan maxsus zona tashkil qilindi. Bundan tashqari, 1984-yilda Sino-Britaniya qo'shma deklaratsiyasi Xitoyning Gongkongda o'rnini yanada mustahkamlab qo'ydi. Keyingi 10 yillikda Gongkong, 4 Osiyo yo'lbarslari' qatorida joy oldi. Unda tashqari, Xitoyning janubiy qismi bilan ham integratsiyalashuv yo'lidan bordi va Pearl River Delta bilan iqtisodiy jihatdan yaqinlashdi. Garchi iqtisodiy jihatdan osiyoning yetakchi davlatlaridan biri bo'lsa-da, Gongkong hali ham to'la mustaqilligini qo'lga kiritma olmadi, qolaversa, avtonomiyaning zaiflashuvi, notenglik hamda mahalliy guruhlar o'rtasida nizolar bu yerni muammolar girdobiga tortilishiga sabab bo'lmoqda.

Xulosa. Umuman olganda, Gongkong Xitoyning eng rivojlangan qismi bo`lishi bilan bir qatorda siyosiy jihatdan eng zaif nuqtalaridan biri hisoblanadi. Bu yerda nafaqat Xitoyning, balki Buyuk Britaniyaning, Amerikaning hamda boshqa davlatlarning manfaati to`qnash kelgan. G`arb davlatlari bu hududdan Xitoyni tiyib turuvchi qurol sifatida foydalanib kelmoqda. Tayvan masalasidan farqli o`laroq, Xitoy bu hududni deyarli nazorat qilish huquqiga ega. Chunki oliy organlar faqatgina Pekinning tanlovi bilangina o`z mansabiga tayinlanadi. Ammo Xitoyning bu hududda yuritadigan siyosati bevosita Tayvan bilan munosabatlariga ta`sir qiladi. Chunki Tayvan ham Amerika uchun Xitoyni nazoratda ushlab turish uchun qo`rg`on vazifasini bajaradi. Gongkongda yo`l qo`yilgan xatolik Tayvandan Xitoy uchun kutilmagan zarbalar qabul qilib olishiga sabab bo`lishi mumkin. Xitoy garchi jadal rivojlanib borayotgan iqtisod hisoblansa-da, uning to`liq ichki siyosiy birlikka erisha olmaganligi, jahonnig yaqqol gegemoniyasiga aylana olmaganligiga sabab bo`lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chris Yeung, Visiting Fellow, Center for Northeast Asian Policy Studies, Foreign Policy Studies Program, Brookings Institution (Washington, DC: Brookings Institution);
2. Lindsay Maizland and Clara Fong (Hong Kong's Freedoms: What China Promised and How It's Cracking Down), 3 July 2025;
3. Steve Tsang, A Modern History of Hong Kong (London: I.B. Tauris, 2004);
4. Ministry of Foreign Affairs of the People's Republic of China. "One Country, Two Systems" and the Taiwan, 2025